

**IQTISODIY FANLARNI O'TISHDA ZAMONAVIY TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH****Yulchiyev Xozibek Ma'murovich**

*Sirdaryo viloyati Oqoltin tuman kasb-hunar maktabi o'quv ishlari bo'yicha
direktor o'rinnbosari*

Yulchiyeva Rohila Farhodjon qizi

Oqoltin tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Usmonova Iroda Zohidjon qizi

Oqoltin tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotasiya: “Ta'lism texnologiyalar” tamoyillari asosida tuzilgan loyixa bo'yicha o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda, egallanadigan bilimlarni ta'lism oluvchilar anglashlari, xotirasida saqlashlari va amaliyotda qo'llay olishlarini bir vaqtning o'zida olib borish (amaliyotda qo'llash deganda faqat muayyan bir ishni bajarib berishni tushinib qolmay, egallangan bilimlarni aytib berish hamda amalda qo'llash, deb chuniladi).

Tayanch So'zlar: Biznes, kasb-hunar, ta'lism, ta'lism texnologiyasi, innovatsiya, iqtisodiy ta'lism, mehnat bozori, pedagog, o'quvchi,

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga xech qaysi soxada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

“Ta'lism texnologiyalari”, agar ularni xududga moslashtirilsa, boshqa barcha usullardan yuqori samaradorligi bilan ajralib, o'quv jarayonining maxoratidan ozod qiladi va ta'lism-tarbiya jarayonini faqat yaxshi va a'lo darajada bo'lishligini kafolatlashi bilan birga, uni qaytadan tiklash imkonini beradi.

Kasb-hunar ta'limi jarayonida o'qitishning yangi texnologiyalaridan samarali foydalananish ta'lism-tarbiya tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ammo aniq ta'limi muommolarni xal etish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llashda ularni ta'lism jarayonini boshqarish xususiyatlariga, an'anaviy va zamonaviy ta'lism berish metodlari va shakllariga, ijtimoiy tizim darajasi va miqyoslarda moslashtirish maqsadga muvofiq. Bu esa o'z navbatida, an'anaviy fan uchun yangi bo'lgan g'oya va tamoyillarga asoslanilgan innovatsion metodlarni yaratish va rivojlantirish imkonini beradi. Innovatsion ta'lism metodlarining turli shakllari mavjud: innovatsion o'yinlar, iqtisodiy muammolarni xal etishda o'quvchilarni erkin va ijodiy fikrlashga o'tadigan o'yin dasturlari, modellashtirish metodi, modulli o'qitish, ro'li o'yinlar, keys-stadi metodi, aqliy xujim metodi, ish o'yinlari va boshqalar. Shakllangan mexnat bozori sharoitida mutaxasislar tayyorlash sifatini takomillashtirishga yo'naltirilgan izlanishlar, bir tomonidan, shaxsning ta'limga bo'lgan extiyojini qondirishga, ikkinchi tomonidan esa,

kasb-hunar maktabi o'qituvchilarini ta'lif texnologiyasini qayta ishlab chiqishga majbur etadi.

Kasb-hunar ta'lifi jarayonida kasbiy faoliyatini modellashtirishga kuchli e'tibor qaratilishi kerak. Shuning uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish juda dolzarb muaommo xisoblanadi. Kasb-hunat ta'lifi nazaryasi va amaliyotini taxlil etish natijalari ko'rsatadiki, maktab bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifati o'quvchilarining yangi bilimlar va zaruriy axborotga bo'lgan extiyojiga, shuningdek, nafaqat nazariyani yaxshi biladigan, balki amaliyotchi mutaxassis-o'qituvchiga ko'p jihatdan bog'liq.

Kichik va o'rta biznes vakillari yoki ish beruvchilar xozirgi zamon ishchi xodimlarini nafaqat kasbiy maxorati yuksak, ijrochi mutaxasis sifatida, balki o'z komondasida bir safda ishlay oladigan ishonchli, ma'sulyatli, korxona va tashkilot manfaatlari uchun jonkuyar shaxs sifatida ko'rishni istaydi.

Shuning uchun biz kasb-hunar maktablari bitiruvchilari egallashi lozim bo'lgan vazifaviy malakalar va insoniy sifatlarni aniqlash maqsadida ish beruvchilar bilan so'rovnama o'tkazdik. So'rovnama natijalari bituvchilar uchun quyidagi sifatlarning muxim ekani ko'rsatiladi: Funksional malakalar: muloqotmandlik, komandada ishlay bilish, ish vaqtini rejalashtirish va tashkil eta bilish, axborotlar bilan ishlay olish, taqdimot etish bo'yicha malakaga ega bo'lish, ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta bilish, o'z tajribasini boshqalarga o'rgatish qobiliyati. Shaxsiy sifatlar: mas'uliyat, moslashuvchanlik, muloxazokarlik, dadillik, bag'ri kenglik.

Iqtisodiy ta'lif berishda keyslar (aniq o'quv vazifalari) va modulli dasturlarga, "o'quv firmasi" texnologiyasiga, loyixalar yordamida o'qitishga, ta'lif berishning faol usullari va boshqlarga asoslanish, shuningdek, muammoli-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasidan foydalanish o'qituvchilarning iqtisodiy savodxonligini shakllantirishda muxim vosita xisoblanadi. O'qitish jarayonida ana shunday ta'lif texnologiyalaridan foydalanish masalasini o'rganish maqsadida kasb-hunar maktablari o'qituvchilari bilan so'rovnama o'tkazildi. Ayni so'rovnama natijalari pedagoglarning mashq-ko'rsatmalar bo'yicha faoliyat ko'rsatish, ishlab chiqish vaziyatlarini taxlil etish, suxbat, kitob bilan mustaqil ishslash, muammoli ma'ruzalani Afzal bilishini ko'rsati. Ko'pgina o'qituvchilar iqtisodiy ta'lif jarayonida, xususan, o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda axborot-rivojlantiruvchi, faoliyatiy, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini e'tirof etdilar. O'qitishning boshqa innovatsion texnologiyalar qatori ko'pincha o'yin texnologiyalari, gurux bo'lib ishslash, moduli o'qitish xam keng qo'llaniladi. Albatta, bunda kasb-hunar maktablarida endigina faoliyat ko'rsatayotgan yosh o'qituvchilarning iqtisodiy ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malakasini oshirish bo'yicha kurslarini muntazam tashkil etish muxim axamiyatga ega.

Xozirgi zamon pedagoglaridan iqtisodiy ta'lif jarayonida o'qitishning yangi texnologiyalarini tadbiq etish, turli yo'nalishdagi kasb-hunar maktablarida kasbiy-iqtisodiy ta'lifni tashkil etish masalasiga yangicha yondashuvni talab etiladi. Chunki

axborot jamiyati shakillanayotgani munosabati bilan o'qitish jarayonida o'quvchilarga ma'lum iqtisodiy axborotlarni berish emas, balki ularda iqtisodiy bilimlarni mustaqil oshirish malakasini shakllantirish, butun umri davomida bilim olishga o'rgatish muxim sanaladi. Ana shundan kelib chiqqan xolda biz iqtisodiy ta'lif jarayonida "O'quv firmasi" praktikumini joriy etishni tashkil etamiz.

Kasb-hunar ta'lif tizimida "O'quv firmasi" bu amaliy mashg'ulot shakli bo'lib, bunda tijorat firmasining real ishlab chiqarish faoliyatiga to'la taqlid qilinadi, yondosh iqtisodliklar xisobga olinadi va aniq ta'limiylar maqsad, masalan, o'quvchilarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish maqsadi qo'yiladi. Ta'lif jarayonida "o'quv firmasi" o'ziga xos praktikum, iqtisodiy predmetlarni, ijtimoiy huquqiy va maxsus fanlarni o'qitishning innovatsion pedagogic texnologiyasini tashkil etadi. Ta'lif berishning bunday zamonaviy modeli o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytirish va samaradorligini oshirishda, bozor iqtisodi sharoitida bo'lajak kichik mutaxasislarning kasbiy maxorati, iqtisodiy savodxonligi va aqliy qobiliyatini rivojlantirishda juda muxim sanaladi.

Iqtisodiy ta'lif jarayonida "O'quv firmasi" praktikumini joriy etish maqsadi quyidagilardan iborat:

- "O'quv firmasi" ish sharoitini tanlangan yo'nalishlar, masalan, tijorat, ishlab chiqarish, savdo sotiq bilan shug'ullanadigan real firmalarning faoliyatiga maksimal darajada yaqinlashtirish yo'li bilan mehnat bozori talablari hamda ta'lif jarayoni o'rtasidagi uzulishlarni aniqlash;
- o'qituvchi-maslaxatchilarning amaliy bilim va malakasiga, xozirgi zamon iqtisodiy qonunlar va mexnat munosabatlarini bilishiga talabni oshirish;
- ta'lif jarayonida, boshqaruvda, axloqiy yo'nalishda motivatsiyani kuchaytirish, o'quvchilarining iqtisodiy savodxonligini oshirish va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish;
- o'qituvchilarining (tadbirkorlik, ish yuritish, buxgalteriya, menejment, marketing va boshqa predmetlar bo'yicha) predmetlararo bog'lanish asosida iqtisodiy ta'lif berishiga erishish.

O'quvchining "O'quv firmasi"dagi ish faoliyati amaliyotning muxim tarkibiy qismi bo'lib, uning iqtisodiy savodxonligi ortishiga va kelgusidagi amaliy mexnat faoliyati uchun muxim sanaladi.

Zamonaviy iqtisodchi nafaqat xisob-kitob ishlarini, balki yuzaga kelgan turli iqtisodiy vaziyatlarni taxlil etishni, tezkor qarorlar qabul qilishni, odamlar bilan muloqot olib borishni va xamkorlikda ishlay olishni bilishi kerak. Bunday sifatlarning shakllanishida o'quv-kasbiy masalalar yechiladigan ish o'yinlari katta axamiyatga ega.

"O'quv firmasi" praktikumining birinchi bosqichida o'quvchilar maqsad va vazifalarini belgilaydi, komanda shakllantiriladi, xar bir xodim vazifasining tasnifini tuzadilar.

"O'quv firmasi" amaliyotining ikkinchi bosqichi oxirida o'quvchilar o'z korxonasi (firmasi) va uning tarmoqlari ishining samaradorligini ko'rsatkichini xisoblaydi.

“O’quv firmasi” amaliyoti ishi yakunlari pedagogik kengashda muhokama etiladi, ya’ni bo’lajak mutaxasislarni sifatli tayyorlash va ularning iqtisodiy savodxonligini oshirish maqsadida qo’llanilgan yangi pedagogik texnologiyalarining samaradorligi o’rnataladi. Vazifalarni aniqlashda yordam beradigan tadbirlar, ularning maqsadi va kutilayotgan natijalar, shuningdek, xar bir tadbirni o’tkazish muddati va mas’ul shaxslar belgilandi. Maqsad va vazifalarni amalga oshirish amaliy xarakterda bo’ladi. Ular qisqa muddatlarda bajarilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va Faravon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Toshkent-“O’zbekiston”-2017
2. B.Ziyomuhhammadov Ta’lim texnologiyalari Toshkent 2012
3. S.Boboqulov Kasb-hunar ta’limi (ilmiy-uslubiy) jurnal 4-son-2006.